

**60811000 – O‘simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi.**

60811000 – O‘simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi.

Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilotlar, agentliklar, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- o‘simliklarni himoya qilishning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- o‘simliklarni himoya qilish tamoyillarini tadbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- o‘simliklarni himoya qilish sohasida qishloq xo‘jalik ekinlarini zararli organizmlardan himoya qilish tizimini tashkil etish, himoya qilish samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari.